УДК 94 (575.1)

QO‘QON XONLIGIDAGI AGRAR MUNOSABATLAR TARIXIDAN

M.M. Ma’murov

Maqolada Qo‘qon xonligida XVIII-XIX asrlarda amalda bo‘lgan agrar munosabatlar va ularning xususiyatlari yoritilib, xonlikdagi yer egaligi va uning turlari, xonlik hududlarida yetishtirilgan asosiy qishloq xo‘jalik ekinlari haqida ma’lumotlar jamlangan. Qo‘qon xonligida qishloq xo‘jaligi sohasida mavjud bo‘lgan asosiy soliqlar – xiroj, ushr, tanobona, zakot, kapsan va boshqa soliqlar hamda majburiyatlar sanab o‘tilgan, qishloq xo‘jalik soliqlarining miqdori, ularni yig‘ish tartiblari bo‘yicha ma’lumotlar tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: *Qo‘qon xonligi, agrar munosabatlar, qishloq xo‘jaligi, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi, donli ekinlar, soliq tizimi, qishloq xo‘jalik soliqlari, xiroj, ushr, zakot, tanobona, somon puli.*

В статье освещены аграрные отношения и их особенности в Коканском ханстве в XVIII-XIX веках. Собраны сведения о землевладении в ханстве и его видах, а также основных сельскохозяйственных культурах, выращиваемых на территориях ханства. Перечислены основные налоги в сфере земледелия в Коканском ханстве – хирадж, ушр, танабона, закят, капсан и другие налоги и повинности, проанализированы размеры сельскохозяйственных налогов и способы их взимания.

Ключевые слова: *Коканское ханство, аграрные отношения, сельское хозяйство, сельскохозяйственное производство, зерновые культуры, налоговая система, сельскохозяйственные налоги, хирадж, ушр, закят, танабона, сомон пули.*

Qo‘qon xonligi o‘zi hukm surgan davrga xos feodal davlat bo‘lib, davlatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasi xon va boshqa hukmron tabaqa vakillarining manfaatlariga xizmat qilar edi. XIX asrning o‘rtalarida Qo‘qon xonligining asosan o‘zbeklar, tojiklar va qirg‘izlardan iborat bo‘lgan aholisi 3 million kishidan ortiqroq edi [1. B. 3].

Qo‘qon xonligi tashkil topgan ilk paytlarda xonlikning asosiy o‘troq hududlari: Axsikent, Koson, Andijon, O‘zgan, O‘sh, Marg‘ilon, Isfara, Vorux, Konibodom va Xo‘jand bo‘lgan. Qo‘qon xonligidagi asosiy shaharlar va viloyatlarni bog‘lovchi uchta asosiy yo‘llar bo‘lib, ulardan birinchisi O‘shdan boshlanib, Terakdovon orqali Qoshg‘argacha borgan; ikkinchi yo‘l Xo‘janddan boshlanib, Istravshan (O‘ratepa) orqali Samarqand va Buxoroni bog‘lagan; uchinchi yo‘l Axsikentdan boshlanib, Kandirlik dovoni orqali Toshkentga borgan [2. B. 4].

Qo‘qon xonligi iqtisodiyotining asosini qishloq xo‘jaligi tashkil qilgan. Xonlikda aholining asosiy ko‘pchiligi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan mashg‘ul bo‘lgan. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi natural xususiyatini saqlab qolgan, dehqonlar o‘zi yetishtirgan mahsulotning ma’lum bir qismini o‘z ehtiyojlari uchun ishlatar, undan ortgan qisminigina bozorga chiqarardilar. Dehqonchilik ishlab chiqarishi o‘rta asrlarga xos qoloq texnologiyaga asoslanar edi. Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining Yevropada ommalashgan asosan yer haydash, yerga ishlov berish, hosildorlikni oshirishga xizmat qiluvchi ilg‘or yangiliklari, agrotexnik tadbirlari O‘rta Osiyoga, xususan, Qo‘qon xonligiga kirib kelmagan edi.

Qo‘qon xonligida xo‘jalikning asosini sug‘orib dehqonchilik qilish va bahorikor yerlarga ekin ekish tashkil etardi. Qo‘qon xonligi hududlaridagi dehqonlar yerni qunt bilan ishlab, paxta, sholi, jo‘xori, tariq, arpa, beda yetishtirganlar. Zamondosh sayyoh va tarixchilar XVIII asrda xonlik hududlarida bog‘dorchilik va polizchilikning ham keng rivojlangani, meva va sabzavotlarning turli-tumanligini, ajoyib amaliy malakani va aholining dehqonchilik ishlariga mehr qo‘yganliklarini qayd qilib o‘tganlar.

Qo‘qon xonligi tashkil topgan dastlabki davrlarda Farg‘onada paxtachilik qishloq xo‘jaligida u qadar katta, muhim ahamiyat kasb etmagan,

paxta ekini u qadar ko‘p ekilmagan. Mahalliy paxta navining vegetativ davri ham uzoq bo‘lib, ko‘sak kech kuzda ham ochilmagan, g‘o‘za tupi bilan yulinib, yog‘in-sochindan pana joyga yoyib qo‘yilgan. Qish davomida pana joyda qurigan g‘o‘zapoyada ko‘saklar ochilib, paxta tolasi yig‘ib olingan. Mahalliy paxta navi (g‘o‘za) kam hosilli bo‘lib, undan ancha past sifatli tola olingan va u asosan mahalliy ehtiyoj uchun ishlatilgan. Venger sayyohi X.Vamberining ma’lumotlariga ko‘ra, 1860-yilda Qo‘qon xonligidan Rossiyaga faqat 4907 pud paxta xom ashyosi olib ketilgan. Vaholanki, shu yili Buxoro amirligidan 721899 pud, Xiva xonligidan esa 22429 pud paxta xom ashyosi Rossiyaga olib ketilgan [3. B. 231].

Xonliklardagi ekin maydonlarining hosildorligi xususida X.Vamberining yozishicha, ishlov beriladigan eng yaxshi bir tanob yerdan 100 botmon (40 funt) g‘alla hosili olingan, yomon yerlardan ko‘p mehnat sarf qilib ham 60 botmondan ortiq hosil olinmagan [3. B. 219–220].

XVIII asr ikkinchi yarmida Qo‘qon xonligida yer egaligi munosabatlarining konsentratsiyalashuv jarayonlari tezlashib, butun yer-mulklar va chorva yaylovlari yirik feodallar – xon va uning amaldorlari, o‘zbek va boshqa urug‘ boshliqlari ixtiyoriga o‘tadi. Qishloq xo‘jaligida sug‘orma dehqonchilik kengaya bordi. Farg‘ona shaharlaridan Qo‘qon, Andijon, Marg‘ilon, Namangan savdo va hunarmandchilik markazlariga aylanib, Qo‘qon xonligining iqtisodiy taraqqiyoti va siyosiy hayotida muhim o‘rin tuta boshlaydi. Xonlik iqtisodining yuksalishi, siyosiy jihatdan mustahkamlanishida va Farg‘ona shaharlarining o‘sishida Rossiya bilan tobora faollashib borayotgan savdo aloqalari, ayniqsa, katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonligi hududlarida hunarmandchilik bilan bir qatorda uy ishlab chiqarishi (kasanachilik) ham ancha keng tarqalgan edi. Aholi xonadonlarida tayyorlangan mahsulotlar oila ehtiyojlarini qondirish bilan birga, bozorga ham chiqarilgan. Uylarda ommalashgan to‘qimachilik ishlab chiqarishi bevosita dehqonchilik bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Ishlab chiqarishning bu turida dehqon xo‘jaliklari o‘zlari yetishtirgan paxta tolasidan uyda ip yigirgan, yigirilgan tayyor iplar qozoq cho‘llariga, Rossiyaga va boshqa qo‘shni mintaqalarga olib ketilgan. Uy kasanachiligi asosan xom ashyoga birlamchi ishlov berish (paxta tolasidan ip yigirish) xususiyatida bo‘lgan, bu mashg‘ulot bevosita dastlakbi xom ashyo bo‘lmish paxtani yetishtirgan dehqon xo‘jaligida olib borilgan.

XVIII asrning oxiri – XIX asrning boshlarida Qo‘qon xonligida dehqonchilikning rivojlanishi va ayrim tumanlar o‘rtasida mahsulot ayirboshlash uchun ancha qulay sharoit vujudga keldi. Qozog‘istonning Rossiyaga qo‘shilishi karvon savdosining keskin o‘sishiga olib keldi. Karvon savdosida O‘rta Osiyodan Rossiyaga faqat hunarmandchilik buyumlarinigina emas, shuningdek, dehqonchilik, ayniqsa paxtachilik mahsulotlari ham olib ketilar edi. Ba’zi bir vohalarda kanal bo‘ylab cho‘zilib ketgan dala va bog‘lar sug‘orilmaydigan xo‘jalik sharoitida xayolga keltirib bo‘lmas darajada mo‘l hosil bergan.

Farg‘ona vodiysi o‘zining bug‘doyi bilan shuhrat qozongan. Bundan tashqari, xonlik hududlarida jo‘xori, makkajo‘xori, sholi, arpa, tariq kabi donli ekinlar yetishtirilgan. Ayni paytda xonlikda polizchilik ham taraqqiy etgan. Farg‘ona vodiysida uzumning 10 dan ortiq navlari yetishtirilgan. Qishloq xo‘jaligida ipakchilik muhim o‘rin tutgan, ipak ko‘proq Namangan va Marg‘ilonda yetishtirilgan. Qo‘qon xonligidagi eng kam taraqqiy etgan tarmoq chorvachilik edi.

Qo‘qon xonligida davlat yerlari (amlok, podsholik) shariat qoidalariga ko‘ra, davlat hukmdorining oliy ixtiyorida bo‘lgan, shunga ko‘ra, davlat yerlari xonlarning ixtiyoriga binoan oldi-sotdi qilinishi, kimlargadir hadya qilinishi, meros, vasiyat qilinishi, garovga berilishi mumkin edi. Qo‘qon xonligiga oid yozma manbalarda davlatga qarashli yerlarning xonlar tomonidan sotilganiga doir ma’lumotlar uchramaydi. Biroq Namangan uyezdida uzoq vaqt bo‘lgan V.Nalivkin tomonidan “Namangan viloyatida o‘zbeklar tomonidan foydalanilayotgan yer maydonining Umarxon tomonidan sotilgani” haqidagi dalil keltiriladi. Uning so‘zlariga ko‘ra, bu yerlar xondan o‘zbeklarning butun urug‘i tomonidan sotib olingan. Sotilgan ekin maydoni urug‘ a’zolari o‘rtasida ularning yerni sotib olishga qo‘shgan mablag‘lari miqdoriga qarab taqsimlab olingan. Nalivkinning ma’lumotlariga ko‘ra, ilgari davlatga qarashli bo‘lgan bu yer maydoni sotilganidan keyin xususiy mulkka aylangan. Muallif bu kabi davlat yerlarining sotilishi bilan bog‘liq holatlarni boshqa viloyatlarda uchratmaganini tan olgan [2. B. 2].

Qo‘qon xonligidagi davlat yerlarining xususiy mulkka aylanishiga doir muhim ma’lumot A.Middendorf asarida ham keltiriladi. Muallif fikricha, davlatga qarashli yer fondlarining katta qismi ayrim kishilarga sotilishi mumkin bo‘lgan yerlar edi [4. B. 417].

Qo‘qon xonligi davriga oid yer egaligi bo‘yicha arxiv hujjatlarida ham Xudoyorxon tomonidan uncha katta bo‘lmagan davlatga qarashli yerlarning oldi-sotdisiga doir ma’lumotlar uchraydi [5. B. 16]. Bu hujjatda keltirilishicha, Xudoyorxon tomonidan xususiy kishilarga sotilgan davlatga qarashli yer bo‘lagi sho‘rlagan, kamhosil, davlat tomonidan qarovsiz qoldirilgan yer bo‘lgan. Bu yer davlat uchun foyda keltirmayotgan bo‘lib, uning o‘zlashtirilishi va ekin ekish uchun dehqon jamoalariga berilishi (sotilishi) ularga foyda keltirishi nuqtayi nazaridan zarur deb hisoblangan. Bu bilan davlatga qarashli yerning xon tomonidan xususiy kishilarga sotilishi asosli deb hisoblangan, boshqa bir tomondan xonning bu harakati yuridik jihatdan oqlangan. Aytib o‘tish lozimki, davlat yerlarining sotilishi Xudoyorxondan avval ham uning otasi Sheralixon tomonidan amalga oshirilgani haqida ma’lumot bor. Ushbu hujjatda keltirilishicha, Xudoyorxon amaldorlarga otasi Sheralixon tomonidan Gurgtepa mavzesidagi mahalliy aholiga sotilgan mulk yerning hujjatini qaytarib olishni va bu yerning sotilgan qiymati bo‘lgan 58 tillani xazinadan to‘lab berishni buyurgan [5. B. 16].

Vaqf yerlari xonlikda asosan xususiy shaxslar, jamoalar yoki jamiyatlar tomonidan maxsus in’om (vaqfnoma) asosida turli diniy-ma’naviy muassasalar – madrasalar, masjidlar, mozorlar va boshqalarning ehtiyojlari uchun berilgan. Odatda bu kabi vaqflar tegishli muassasaga abadiy foydalanish uchun berilgan va uni qaytarib olish mumkin emas edi. Vaqf mulklariga egalik qilish haqidagi hujjatlar (inoyatnoma) shaxsan xonlar tomonidan berilgan.

Qo‘qon xonligida nisbatan ancha katta ekin maydonlarini egallagan vaqf yerlari qonuniy ravishda diniy muassasalar tomonidan doimiy foydalanishga berilgan. Bu kabi vaqf yerlari tegishli diniy muassasa rahbarlari tomonidan dehqonlarga ma’lum bir shartlar bilan ijaraga berilgan. Bu yerlardan olingan daromad evaziga madrasa, masjid va boshqa muassasalarning faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Vaqf yerlaridan keladigan daromadning hisob-kitobi va daromadni ruhoniylar, mudarrislar hamda talabalar o‘rtasida taqsimlash vazifasi mutavalli (nazoratchi-boshqaruvchi) tomonidan amalga oshirilgan [1. B. 3–4].

Qo‘qon xonlari tomonidan ham bir qancha yerlar turli diniy muassasalarga vaqf qilib berilgan va XIX asr boshlarida xonlikdagi vaqf yerlari ancha katta miqdorni tashkil qilar edi. XIX asrning ikkinchi yarmida vaqf yerlari maydoni sezilarli darajada oshgan va xonlik bo‘yicha taxminan 100 ming desyatinaga yetgan [6. B. 40–41]. Aksariyat hollarda vaqf yerlari barcha davlat soliqlari va bojlardan ozod qilingan. Vaqf yerlari, shuningdek, musodara qilinmagan va xon amaldorlari tomonidan har qanday tajovuzlardan himoyalangan. Shu sababli ham xonliklarda vaqf yer egaligi eng keng tarqalgan yer egaligi shakllaridan biri edi [7. B. 9].

Aksariyat yersiz dehqonlar vaqf yerlarida ijara asosida mehnat qilganlar. Bunday ijarachilar *chorikorlar* deb atalgan va ular umumiy holda vaqf yerlarida o‘zlari tomonidan yetishtirilgan hosilning to‘rtdan bir qismiga egalik qilganlar. Lekin, XVIII–XIX asrlarda xonliklarda vaqf yerlari ijarasi turlari shartlari juda ko‘p va xilma-xil bo‘lib, ularga ko‘ra ijarachi dehqon-chorikor ijara yerda o‘zining asbob-uskunalari, ish hayvoni bilan ishlov berishi yoki bu kabi qurollarni ham yer egalaridan ijaraga olishiga ko‘ra yetishtirilgan hosilning uchdan bir qismidan to oltidan bir qismigacha egalik qilishi mumkin edi [8. B. 98–99].

Shariat qonunlariga ko‘ra, ekin ekiladigan yerlar bo‘yicha soliq ekiladigan yerlarning miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblangan. Soliq turiga ko‘ra yerlar *xiroj yerlar, mulki-ushriy va mulki hurri xolis* turlariga bo‘lingan. Xiroj yerlari hosildan undiriladigan eng og‘ir soliq turiga tortilgan va bu soliq *xiroj* deb atalgan. Musulmon mamlakatlarida xiroj miqdori odatda yetishtirilgan g‘alla hosilining uchdan bir qismini tashkil qilgan. Qo‘qon xonligida xirojning miqdori turli yillarda turli miqdorni tashkil qilgan, shuningdek, bu soliqni undirishda mas’ul bo‘lgan amaldorlar (amlokdorlar) tomonidan suiiste’mol qilish hollari ham kuzatilgan. Umuman, Qo‘qon xonligida xiroj umumiy hosilning 1G‘5 qismdan 1G‘3 qismigacha undirilgan, to‘lov natura va pul shaklida amalga oshirilgan [9. B. 28]. Xiroj barcha davlat yerlaridan (amlok), birinchi navbatda dehqonlar tomonidan ijaraga olingan, shuning-

dek, xususiy va jamoa yerlarining barchasidan (mulki xirojiy) undirilgan.

Ekin yerlari sotilgan hollarda ushbu yerning barcha soliqlari va turli majburiyatlari hech qanday o‘zgarishsiz yerning yangi egasiga o‘tgan.

Ekin yerlariga nisbatan joriy etilgan davlat majburiyatlaridan yana biri ushr deb atalgan va uning hajmi odatda hosilning o‘ndan bir qismini tashkil etgan. Bu soliq asosan davlat xazinasiga nisbatan imtiyozli bo‘lgan xususiy yerlardan – mulki ushriy deb atalgan yerlardan undirilar edi. Mulki hurri xolis deb nomlangan xususiy yerlar davlat soliqlari, bojlari va turli majburiyatlardan butunlay ozod qilingan. Bu kabi yerlarga xonning yaqin qarindoshlari, yirik saroy amaldorlari va ruhoniylar egalik qilganlar.

Yuqoridagi ma’lumotdan, ya’ni davlat foydasiga soliq to‘lamaydigan yerlarni (mulki hurri-xolis yoki vaqf) ijaraga olgan dehqonlarning ahvoli hiroj to‘layditgan yerlarni ijaraga olgan dehqonlarning ahvolidan yaxshiroq bo‘lgan, degan xulosa kelib chiqmaydi. Vaqf egalari odatda o‘z yerlarini bir yoki bir necha ijarachilarga bu yer vaqf bo‘lgunga qadar undan undirilgan soliq miqdoriga ijaraga berganlar. Bu vaqfdan keladigan asosiy daromadni tashkil qilgan. Ayni vaqtda ijarachi bu yerni mayda-mayda bo‘laklarga bo‘lib, har bir bo‘lakni alohida yersiz dehqonlarga ijaraga bergan. Yerni ikkinchi qo‘ldan ijaraga olgan dehqonlar ikki barobar ko‘proq soliq to‘lashga majbur bo‘lganlar. Ba’zan dehqonlar hatto uchinchi shaxslardan ham yerni ijaraga olganlar, bunday hollarda dehqonlarga qoladigan daromad juda oz miqdorni tashkil qilar edi [10. B. 17].

Qo‘qon xonligida yer solig‘ini (xiroj) hisoblash quyidagicha amalga oshirilgan: beklar (xon noiblari) o‘zlariga qarashli hududda alohida hay’at tashkil etib, uning tarkibiga amlokdor yoki sarkor (soliq yig‘ish bo‘yicha mas’ul shaxslar) aminlar, ariq oqsoqollari (miroblar), mullalar va boshqa shaxslar kirgan. Hay’at hosil pishib yetilganidan keyin tegishli qishloqlardagi ekin maydonlarini o‘lchab, hosilni ko‘z bilan chamalab uning hajmini taxminan belgilagan. Ko‘pincha ana shunday taxminiy ma’lumotlar asosida yer solig‘i miqdori belgilangan. Soliqlarni taqsimlash maxsus kitoblarga (daftar) yozib borilgan. Daftarlardagi faqat bek va sarkorlarga ma’lum bo‘lgan yozuvlar asosida soliq undirilgan [11. B. 185].

Qo‘qon xonligining so‘nggi davrida – XIX asrning 60–70-yillarida dehqonlardan soliq undirish shafqatsiz ko‘rinish olgan. Bahorgi ekin ishlari boshlanishi bilan sarkor har bir uchastkaga bittadan mirob jo‘natgan, ular yoz davomida tegishli uchastkadagi yer egalari soni va ular tomonidan ekilgan ekin turlari, hosilning taxminiy miqdori to‘g‘risida ma’lumot jamlaganlar. Hosilni yig‘ishtirish boshlanishi bilan ekin uchastkalariga xiroj miqdorini belgilash bo‘yicha mulla, mirob, ariq oqsoqoli ishtirokida hay’at tuzilgan. Ular tomonidan barcha ekin maydonlari tanobi o‘lchanib, ulardan soliqqa tortiladigan qismi aniqlangan hamda undiriladigan xiroj miqdori belgilanib, umumiy ro‘yxatga kiritilgan. Ro‘yxat xirojni yig‘ish ishiga mas’ul bo‘lgan sarkor tomonidan ariq oqsoqoli va aholi vakillarini so‘roq qilish orqali tekshirilganidan so‘ngra tasdiqlash uchun viloyat begiga topshirilgan. Ro‘yxat tasdiqlangungacha bo‘lgan muddatda har bir soliq to‘lovchi shaxs bekning oldiga kelib, uni soliqdan ozod qilish yoki soliq yukini kamaytirish bo‘yicha arz qilishi mumkin edi.

Ro‘yxat tasdiqlangandan so‘ng har bir ekin yeri bo‘yicha belgilangan xiroj zudlik bilan yig‘ib olingan. Chunki xiroj yig‘ilmasdan turib hosilni daladan olib chiqish mumkin emas edi [12. B. 460].

Soliq yig‘ishga mas’ul bo‘lgan sarkor va miroblar tomonidan ekin maydonlari va yetishtirilgan hosil miqdorini o‘lchashda ko‘pincha nohaqlik va suiiste’molliklarga yo‘l qo‘yilgan, bu kabi holatlar soliq to‘lovchi dehqonlarning zimmasiga og‘ir yuk bo‘lib tushgan. Soliq yig‘ishdagi bunday adolatsizliklar dehqon xo‘jaliklarining noroziliklariga sabab bo‘lardi. Bu kabi holatlar Qo‘qon xonligi tarixiga doir ilmiy adabiyotlarda, shuningdek, badiiy asarlarda ham yoritilgan.

Farg‘ona viloyati harbiy gubernatorining xonlik davridagi xiroj yig‘ish tartibi to‘g‘risidagi ma’lumotlari diqqatga sazovordir. Bu ma’lumotlar 1879-yilga tegishli bo‘lsa-da, Qo‘qon xonligi tugatilgunga qadar aholidan deyarli shu miqdorda soliq yig‘imlari yig‘ilganligi e’tiborga olinsa, ular tadqiq etilayotgan davr uchun ham ma’lum qimmatga ega hisoblanadi. Ma’lumotda aytilishicha, “xirojning miqdori xonlik davridagi darajasiga juda yaqinlashtirilgan. Ya’ni, masalan, Qo‘qon uyezdida 200 ming tanob yerdan 240 ming rubllik xiroj to‘plangan; Andijonda 380 ming tanob ekin yerlaridan 450 ming rubllik xiroj

yig‘ilgan; Namangan uyezdida 135 ming tanob yerdan 140 ming rubllik; Chustda 120 ming tanob yerdan 148 ming rubl; Isfarada 108 ming tanob yerdan 109 ming rubl; O‘sh uyezdida taxminan 60 ming tanob yerdan 69 ming rubllik xiroj solig‘i olingan. Umuman, Farg‘ona viloyati bo‘yicha birgina xiroj solig‘i jami summasi 1 million 248 ming tanob yerdan 1 million 463 ming rublni tashkil qilgan [13. B. 10–11].

Dehqonlar xiroj solig‘idan tashqari, amlokdorlarning foydasiga kapsan* ham to‘lashlari lozim edi. Soliq miqdorini belgilash va undirishda ishtirok etgan quyi ma’muriyatning barcha a’zolariga ma’lum miqdorda g‘alla (mushtak) berilishi kerak edi. Chunki xonlikda hech bir davlat amaldori davlat xazinasidan maosh olmagan, ularning ehtiyoji oddiy xalq tomonidan qoplangan. Ko‘pincha soliq yig‘ishga mas’ul sarkorlar va boshqa quyi amaldorlar o‘zlariga ajratilgan ulushdan ko‘proq narsani undirishga harakat qilganlar. Buning natijasida asosiy mehnatni qilgan va hosilni yetishtirgan dehqonga juda oz haq qolar edi.

Dehqonlarni bu kabi shafqatsiz talash ma’muriyat tomonidan turli zo‘ravonlik bilan ham birga amalga oshirilgan. Soliq amaldorlari dehqonlarning ekin maydonlari hajmini sun’iy ravishda oshirib, shunga ko‘ra soliq undirardilar. Buni sarkorlarning oddiy dehqonlarga nisbatan amalga oshirgan suiiste’molchilik holatlari yuzasidan xonga yo‘llagan ko‘plab shikoyatlari ham tasdiqlaydi [4. B. 416].

Yuqorida ta’riflangan xiroj solig‘i faqat g‘alla ekinlari va paxta yetishtiriladigan yerlardan undirilar edi. Poliz ekinlaridan, bog‘lardan, uzumzorlardan, beda ekinlaridan va boshqa ekinlardan alohida *tanobona* solig‘i undirilgan. Tanobona solig‘ining miqdori ekilgan hosilga bog‘liq edi. Masalan, terak va qayrag‘och ekilgan bir tanob* yerdan 50 tiyin; qovun, tarvuz, bodring kabi tomorqa ekinlaridan, bedazor, tutzorlar, bahorgi piyoz va sabzi ekilgan maydonlarning tanobidan 1 rubl; mevali bog‘ va tokzorlarning har tanobidan 2 rubldan tanobona solig‘i undirilgan [14]. Xiroj kabi tanobona solig‘i ham yer rentasining o‘zgartirilgan shakli edi. Tanobona solig‘i ham davrlarga qarab o‘zgarib turgan, uning miqdori ham tobora ko‘payib borgan. Lekin, aralash shaklda (natura va pul ko‘rinishida) yig‘iladigan xirojdan farqli ravishda tanobona solig‘i qat’iy ravishda pul hisobida undirilgan.

Shunday qilib, XIX asrning o‘rtalarida Qo‘qon xonligida ekin yerlari bilan bog‘liq soliqlar uch xil bo‘lgan: majburiyat ko‘rinishidagi, mahsulot hisobidagi, pul hisobidagi soliqlar. Qo‘qon xonlari yer solig‘ining sanab o‘tilgan turlaridan tashqari boshqa yana ko‘plab soliqlarni ham undirgan. Qishloq xo‘jalik sohasidan undirilgan soliqlar jumlasiga somon puli (to‘plangan somon uchun undirilgan); xon askarlari foydasiga to‘lov undirish; dallol puli; ko‘chmas mulkni (yer va uylarni) sotishdan olinadigan yig‘im; chorva hayvonlaridan olinadigan soliq (zakot); o‘tin kesish, qamish va quruq xashaklarni yig‘ish huquqi uchun yig‘im; harbiy ehtiyojlar uchun ot, arava va boshqa shunga o‘xshash asbob-uskunalar yig‘ish kabi soliq va majburiyatlar bor edi.

Xudoyorxon o‘z xazinasini to‘ldirish uchun mablag‘ izlab, harbiy xarajatlar, saroy ehtiyoji xarajatlari va shaxsiy ko‘ngilxushligi uchun oddiy aholini ko‘proq soliqqa tortish manbalarini o‘ylab topgan. Turkiston general-gubernatorligi devonining amaldori Bekchurin Xudoyorxon kiritgan yangi soliqlar haqida xabar berar ekan, “dashtda o‘sadigan tikanlardan, qamishlardan, ko‘llardan yig‘ilgan zuluklardan ham soliq undirilgani”ni aytib o‘tadi. Ko‘pincha dashtlardagi ana shunday tikan va qamish o‘sadigan hududlar, ko‘llar xon tomonidan qo‘yilgan maxsus kishilar tomonidan nazorat qilingan yoki ayrim shaxslarga ijaraga berilgan [14].

Xonlik aholisi behisob soliq va yig‘imlardan tashqari, bir qancha majburiyatlarni bajarishga ham majbur edi. Bunday majburiyatlar sirasiga qal’alar qurish, ta’mirlash, sug‘orish tarmoqlarini tozalash kabi ommaviy ishlarda aholi o‘z oti, aravasi, mehnat qurollari bilan qatnashishga majbur edi. Agar biron bir kishi bunday ishlarga qodir bo‘lmasa, u ma’lum miqdordagi pulni berishi shart bo‘lgan. Bu kabi kishilardan yig‘ilgan pulga mardikorlar, ot va aravalar yollangan.

Xonlikda keng tarqalgan majburiyatlardan biri hasharlar bo‘lib, ular yordamida jamoat binolari, turli inshootlar va irrigatsiya tizimlari qurilgan, ta’mirlangan, shaharlar va aholi punkt-

* **Kapsan** – soliq yig‘ishga mas’ul bo‘lgan amaldorlar ehtiyoji uchun dehqonlardan to‘planadigan maxsus soliq Kapsan solig‘i natural ko‘rinishda bo‘lgan.

* **Tanob** – yer sath o‘lchov birligi. Ko‘rib o‘tilayotgan davrda Qo‘qon xonligida 1 tanob er 0,15 gektarga teng edi.

lari obodonlashtirilgan. Hasharlarga aholining turli qatlamlari vakillari jalb etilgan, ammo badavlat tabaqa vakillari davlat xazinasiga ma'lum miqdorda pul to'lash orqali ko'pincha bu turdagi majburiyatdan ozod bo'lganlar.

Majburiyatlar ko'pincha urushga tayyorgarlik ko'rish yoki mudofaa inshootlari qurish paytida joriy etilgan. Birinchi holda majburiyat oddiy aholi uchun og'ir yuk bo'lib tushardi, chunki bosqinchilik urushlari doimo hukmron doiralar manfaatlariga xizmat qilardi. Ikkinchi holda majburiyat burch yoki vatanparvarlik xususiyati kasb etardi, chunki u vatanni himoya qilish uchun mudofaa ishlariga qaratilgan edi.

Adabiyotlar:

1. *Валиев А.Х*. Положение дехканства Ферганы в конце XIX – начале XX веков. – Ташкент: Госиздат УзССР, 1958. – 51 с.

2. *Наливкин В.* Краткая история Кокандского ханства. – Казань: Типография Императорского Университета, 1886. – 215 с.

3. *Вамбери А.* Очерки Средней Азии. – Москва: Издание А.И.Мамонтова, 1868. – 365 с.

4. *Миддендорф А.Ф*. Очерки Ферганской долины. /Пер. с нем. В.И. Ковалевского. – Санкт-Петербург: Типография Императорской Академии Наук, 1882. – 604 с.

5. Ўзбекистон Миллий архиви (Ўз МА), И.1043-фонд, 1-рўйхат, 565-иш.

6. Ўз МА, И.1-фонд, 12-рўйхат, 682-иш.

7. *Дембо Л.И*. Земельный строй Востока. – Ленинград: Издание института живых восточных языков им. А. С. Енукидзе. 1927. – 117 с.

8. *Иванов П.П.* Очерки по истории Средней Азии (XVI – середина XIX в.). – Москва: Издательство Восточной литературы, 1958. – 250 с.

9. *Гирс Ф.К*. Отчет ревизующего по высочайшему повелению Туркестанский край тайного советника Гирса. – Санкт-Петербург: – Б.м., 1884. – 465 с.

10. Ўз МА, И.1-фонд, 12-рўйхат, 79-иш.

11. *Набиев Р.Н*. Из истории Кокандского ханства (Феодальное хозяйство Худояр-хана). – Ташкент: Фан, 1973. – 388 с.

12. История Узбекистана (XVI – первая половина XIX в.). – Ташкент: Fan va texnologiya, 2012. – 237 с.

13. Ўз МА, И.1-фонд, 14-рўйхат, 339-иш.

14. *Пантусов Н.* О податях и повинностях существующих в бывшем Кокандском ханстве в последнее время правления Худояр-хана // Туркестанские ведомости. 1876. – №16. – 1876 с.

FROM THE HISTORY OF AGRARIAN RELATIONS IN THE KOKAN KHANATE

Muzaffar M. Ma'murov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2023. 5(73). 46-52.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Keywords: Kokan Khanate, agrarian relations, agriculture, agricultural production, grain crops, tax system, agricultural taxes, hiraj, ushr, zakat, tanabona, somon puli.

Agriculture was the basis of economy of Kokan Khanate. The majority of the population in the khanate was engaged in agricultural production. Agricultural production preserved its natural character, farmers used a certain part of the products they grew for their own needs, and released only the excess part to the market. Agricultural production was based on backward technology typical of the Middle Ages.

In the Kokan khanate, the basis of the economy was irrigated farming and planting crops on spring lands. Farmers in the territories of the Kokan khanate diligently cultivated the land and cultivated cotton, rice, corn, millet, barley, alfalfa. Contemporary tourists and historians noted that in the 18th century, horticulture and policing were widely developed in the Khanate territories, as well as the variety of fruits and vegetables, excellent practical skills, and the love of the population for farming.

At the end of the 18th – beginning of the 19th century, favorable conditions were created for the

development of agriculture and the exchange of products between some districts in the Ko'kan Khanate. The annexation of Kazakhstan to Russia led to a sharp increase in caravan trade. In the caravan trade, not only handicrafts were taken from Central Asia to Russia, but also agricultural products, especially cotton. In some oases, the fields and orchards that stretched along the canal yielded unimaginably abundant crops under non-irrigated farming conditions.

In the Kokan Khanate, the waqf lands, which occupy relatively large cultivated areas, were legally given to religious institutions for permanent use. Such waqf lands are leased to farmers by the leaders of the respective religious institutions under certain conditions. Madrasas, mosques and other institutions have been established with the income from these lands. Most of the landless peasants worked on leased land. Such tenants were called *chorikors*, and they generally owned one-fourth of the crops grown by them on the waqf lands.

According to Sharia law, tax on arable land is calculated based on the amount of arable land. According to the type of tax, land is divided into *Hiraj land*, *Mulki-Ushri* and *Mulki Hurri holis* types. Hiraj lands were subject to the heaviest type of tax levied on crops, and this tax was called hiraj. In Muslim countries, the amount of hiraj usually made up one third of the grain harvest.

Another of the state obligations imposed on arable land was called *ushr*, and its size was usually one-tenth of the harvest. This tax was mainly levied on private lands that were privileged over the state treasury – lands whose property was called ushriy.

The hiraj tax described above was levied only on grain and cotton lands. A separate farm tax was levied on crops, orchards, vineyards, alfalfa and other crops. The amount of *Tanobona* tax depended on the cultivated crop. For example, one acre of land planted with poplar and elm is 50 timans; 1 ruble from homestead crops such as melons, watermelons, cucumbers, betel leaves, mulberry plantations, spring onions and carrots; A tax of 2 rubles was levied on each branch of orchards and vineyards.

References:

1. Valiev, A.X. (1958) *Polojeniye dexkanstva Fergany v konse XIX – nachale XX vekov* [The situation of the Fergana dekhkan at the end of the 19th – beginning of the 20th centuries]. Tashkent: Gosizdat UzSSR.

2. Nalivkin, V. (1886) *Kratkaya istoriya Kokandskogo hanstva* [Brief history of the Kokand Khanate]. Kazan: Tipografiya Imperatorskogo Universiteta.

3. Vamberi, A. (1868) *Ocherki Srednej Azii* [Sketches of Central Asia]. Izdanie A.I.Mamontova.

4. Middendorf, A.F. (1882) *Ocherki Ferganskoj doliny* [Essays on the Fergana Valley]. Sankt-Peterburg: Tipografiya Imperatorskoj Akademii Nauk.

5. O'zbekiston Milliy arxivi (O'z MA) [National archive of Uzbekistan (NA of Uz]. Fund I. 1043, List 1, Collected volume 565.

6. NA of Uz., Fund I.1, List 12, Collected volume 682.

7. Dembo, L.I. (1927) *Zemel'nyj stroj Vostoka* [Land system of the East] . – Leningrad: Izdanie instituta zhivyh vostochnyh yazykov im. A.S.Enukidze.

8. Ivanov, P.P. (1958) *Ocherki po istorii Srednej Azii (XVI – seredina XIX v.)* [Essays on the history of Central Asia (XVI – mid-XIX centuries)]. Moscow: Izdatel'stvo Vostochnoj literatury.

9. Girs, F.K. (1884) *Otchet revizuyushchego po vysochajshemu poveleniyu Turkestanskij kraj tajnogo sovetnika Girsa* [Report of the Privy Councilor Girs, revising the Turkestan region by the highest order]. Sankt-Peterburg: – B.m.

10. NA of Uz., Fund I.1, List 12, Collected volume 79.

11. Nabiev, R.N. (1973) *Iz istorii Kokandskogo hanstva (Feodal'noe hozyajstvo Hudoyar-hana)* [From the history of the Kokand Khanate (Feudal economy of Khudoyar Khan)]. Tashkent: Fan.

12. (2012) Istoriya Uzbekistana (XVI – pervaya polovina XIX v.). [History of Uzbekistan (XVI – first half of the 19th century)]. Tashkent: Fan va texnologiya.

13. NA of Uz., Fund I.1, List 14, Collected volume 339.

14. Pantusov, N. (1876) O podatyax i povinnostyax sushestvuyushih v byvshem Kokandskom hanstve v posledneye vremya pravleniya Xudoyar-xana [On taxes and duties existing in the former Kokand Khanate during the recent reign of Khudoyar Khan]. *Turkestanskie vedomosti*. No16. Pp.1876.

Muallif haqida ma'lumot:

MA'MUROV Muzaffar Meliqo'ziyevich – Qo'qon davlat pedagogika instituti Tarix kafedrasi katta o'qituvchisi. E-mail: muzaffar1982@mail.ru